

**ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING YASALISH
TURLARI VA LINGVISTIK OMILLARI**

Saidova Muhayyo Umedilloevna

BuxDU, filologiya fanlari nomzodi

e-mail: mukhayyo1981@mail.ru

Sattorova Maftuna Shavkatovna

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrası

II bosqich magistranti

e-mail: smaftuna484@mail.ru

Annotatsiya. Adabiyotshunoslik terminlarining nisbiy xarakterda ekanligi ularning aniqlik mezonlarini bir boshdan jiddiy ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur terminlarni tadqiq etish adabiyotshunoslikdagi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada adabiyotshunoslik terminlarining xususiyatlari, ularning hosil bo'lishidagi lingvistik omillar hamda yasalish turlarini tahlil qildik.

Kalit so'zlar: terminologiya, adabiyotshunoslik terminlari, tub terminlar, yasama terminlar, affiks, suffiks, abviatura, konversiya

KIRISH

Terminologiya ikki xil ma'noga ega: 1. Bu har qanday fan sohasidagi tushunchalar va ularning belgilarini (atamalar, nomlar, belgilar) o'rganish tamoyillari va usullari bilan bog'liq intizom hamda tegishli ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va boshqarish ishi. , va 2. alohida fan sohasining maxsus tiliga mansub atamalar majmui. Tushunchalar va ularning maxsus tillardagi ifodalarini o'rganishda terminologiya ko'p tarmoqli hisoblanadi, chunki u o'zining asosiy vositalari va tushunchalarini bir qator fanlardan (masalan, mantiq, ontologiya, lingvistika, axborotshunoslik va boshqa aniq sohalar) oladi va ularni tartibda mos ravishda moslashtiradi. o'z sohasidagi xususiyatlarni qamrab olish. Terminologiyaning fanlararo aloqadorligi terminologik birliklarning lingvistik

ob'ektlar (lingvistika), kontseptual elementlar (mantiq, ontologiya, kognitiv fanlar) va ilmiy va umumiy til kontekstlarida aloqa vositalari sifatida ko'p qirrali xususiyatidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, terminologiya nazariyasi uch xil o'lchovga ega ekanligini aniqlash mumkin: kognitiv, lingvistik va kommunikativ o'lchov (Sager: 1990). Terminologiya nazariyasining lingvistik jihatini, asosan, atama yasalishi va atama shakllari uchun qonuniyatlarni belgilovchi lingvistik mexanizmlarda aniqlash mumkin. Ushbu rejada biz atama shakllanishiga oid umumiy lingvistik tamoyillarni ahamiyati tilda asl tushunchani birlamchi nomlashda va o'rganilgan tilda ikkinchi darajali atama shakllanishiga naqadar muhimligiga e'tiborimizni qaratamiz. Terminlar hosil bo'lishining lingvistik omillari terminologlar, terminograflar va boshqa fan sohasi mutaxassislari bilan bir qatorda tarjimonlar, lug'atshunoslar va texnik yozuvchilarni ham qiziqtiradi. K.M. Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha terminologiya yagona reja asosida qurilsada, birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi.(Musayev K.M. Formirovanie, razvitie isovremennie terminologii. –M.:Nauka, 1986)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu ishda bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Terminga qo'yiladigan me'yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S.Lotte tomonidan ishlab chiqilgan, terminga nisbatan funksional yondashuv G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy va V.G.Gak kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Terminning shakllanishi muayyan muhitda amalga oshirilishi mumkin, masalan: tadqiqot jarayonida, ishlab chiqarish korxonasida, konferensiyada, kichik korxonada va hokazo. Odatda atama tilning fonologik, morfologik, morfosintaktik va leksik tuzilmalariga asoslangan holda yangi lisoniy tushuncha ifodasini topadi.

Sager [1990: 80] fikricha, atama yasallishining pragmatik sharoitlariga qarab ikki turni ajratish mumkin: birlamchi atama shakllanishi va ikkilamchi termin shakllanishi. Birlamchi ijod kontsepsiyaning shakllanishi bilan birga keladi va bir tilli bo'ladi. Ikkilamchi shakllanish mavjud kontsepsiya uchun yangi atama yaratilganda sodir bo'ladi:

Leksema yasash sohasida tilning ichki rivojlanish qonunlari yaqqol ko'rinadi. Uning rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog'liq holda yangidan vujudga kelayotgan modellar hamda so'z yasash usullari buning isbotidir. Hozirgi zamon ingliz tilida ana shunday usullardan biri – so'zlarni o'zaro qo'shib so'z yasash turlicha nomlanadi. Ba'zi adabiyotlarda “morfologik – sintaktik usul bilan so'z yasash”, “Grammatik uslub bilan so'z yasash” deb berilsa, ayrimlarida “leksik – sintaktik uslub bilan so'z yasash” atamasi qo'llaniladi. O'zbek tilshunosligida aynan shu usul bilan yangi termin hosil qilishni “sintaktik usul bilan termin yasash” deb yuritiladi. Oddiy so'zlar ma'nosini o'zgartirish yo'li bilan yangi termin yasash ko'pgina tillarda xalqaro sohalarda lug'at boyligini oshirishga imkon beradi. Xalqaro terminlarning kattagina miqdori umumadabiy til so'zlarining, ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlardan olingan terminlarning ma'nolarini o'zgartirish yo'li bilan boyitilgan. Terminlar yasashning bu usuli boshqalardan [shunisi bilan farq qiladiki](#), boshqa hollarda yangi tushunchani ifodlash uchun qaytadan yangi shakl (ya'ni elementlari yangicha birlashtirilgan so'z) yaratilsa, bu yerda yangi mazmun ma'no eski shakliga (ya'ni oldin mavjud bo'lgan tayyor so'z olinadi) joylashtiriladi. Ma'noni o'zgartirish yo'li bilan termin yasashning o'ziga xos tomoni shundaki, terminlashtirilayotgan obyekt (ya'ni nom berish kerak bo'lgan predmet yoki hodisa) xar doim nomi termin sifatida qo'llanilayotgan predmet yoki hodisa bilan qandaydir umumiylikka ega bo'ladi. Bu umumiylik ularning tashqi ko'rinishi yoki bajaradigan vazifasi o'rtasidagi o'hashlik va shu kabilarda nomoyon bo'lishi mumkin. Mavjud predmetning nomini yangisiga faqatgina bu predmetlar tug'risidagi tushunchalar aniq, ularni o'zaro bog'laydigan umumiy jihatga ega bo'lgan holatdagina ko'chirish mumkin xolos, aks holda buni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham

terminlar yasashda ularning ma’nosiga, strukturaviy tuzilishiga e’tibor qaratish darkor. Struktural – ma’noviy jihatdan tahlil etilayotgan xalqaro terminlari qisqartma holda ham uchraydi. Bizning ilmiy tadqiqotimizda ularni tahlil qilishda avvalam bor qisqartmalarni semantik tahlil qilib bo‘lmasligini ta’kidlamoqchimiz. Shu sababli ularning to‘liq ma’nolariga ega bo‘lish maqsadida yoyma so‘zlarning tahlil etish lozim bo‘ladi.

Ingliz tilida qo‘llaniladigan quyidagi atamalarni shakllantirish mexanizmlari tan olingan va boshqa tillarda ham qo‘llanilishi mumkin:

1. Yangi shakllarni yaratish
2. Mavjud shakllardan foydalanish va
3. Translingual qarz olish.

Ingliz va o‘zbek tillarida affiksatsiya usuli bilan termin yasalishi umumadabiy til leksik birliklarini hosil qiluvchi ayni so‘z yasovchi qo‘shimchalar hamda so‘z yasovchi qoliplar yordamida amalga oshiriladi. Ingliz va o‘zbek tillarida affikslar qo‘shilish o‘rniga ko‘ra prefiks hamda suffiks xarakterida bo‘ladi. Ushbu tillarda yasama so‘zlar prefiksatsiya va suffiksatsiya usullari bilan hosil qilinadi va bular so‘z yasalishining faol usullari hisoblanadi. Chunki o‘zbek tilida yasama so‘z mustaqil ma’noli tub so‘zdan yasaladi. Huddi shu usul orqali so‘z yasalishi ingliz tilida ham amalga oshadi. Masalan: narrate(o)+r, write+r, act+or, ish-chi, bosh+liq, san’at+kor kabi.

2. Qo‘shma gap: Qo‘shish jarayoni mavjud so‘zlar yoki lug‘aviy elementlarning birlashishi natijasida yangi shaklga olib keladigan shakllanishdir. Birikmalar murakkab atamalar, iboralar yoki birikmalar bo‘lishi mumkin.

Ingliz tilida murakkab atama yoki iborani tashkil etuvchi asos yoki so‘zlar tire yoki birikma orqali qo‘shiladi yoki ular orasiga qo‘shilish belgisiz keltiriladi.

Masalan: defis(-): avant-garde, accentual-syllabic meter, copy-text, descriptive-meditative lyric, hip-hop, frame-story, self-reflexive novel, over-reading

Qo’shib yoziladigan: Bildungsroman, broadside, freestyling, fourteener, foregrounding, phallagocentric, counterculture, carnivalesque, cyberpunk, flashback, folktale, leitmotif, limerick, touchstone

Ajratib yoziladigan: bucolic poetry, comedia dell’arte, double plot, dramatic irony, epic theater, heptameter, heroic couplet.

Adabiyotshunoslik terminlarining kompozit usulda hosil bo’ladigan namunalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval 1

| Namuna | Misol |
|--------------|--|
| Ot+ot | History play, folk ballad, folk drama, gender criticism, science fiction, Renaissance man, restoration comedy, |
| Ot+of+ot | Age of sensibility, death of the author, format of a book, literature of the absurd, |
| Son+ot | Heptameter, hexameter, four humours, fourteener , first-person narrative, |
| Sifat+gerund | Feminine ending, masculine ending, close reading, freestyling |
| Fe’l +ot | Sign proper, manifest content, lost generation, loose sentence, implied author, forced rhyme, end rhymes |
| Fe’l+fe’l | End-stopped (lines) |
| Fe’l+predlog | Run-on lines |
| Predlog+ot | In-medias res, |
| Sifat+ot | Heroic drama, gothic novel, mimetic criticism, oral poetry, periodic sentence, |

| | |
|--|---|
| | romantic comedy, satiric comedy, short story, stable irony, verbal irony and etc. |
|--|---|

Hozirgi o‘zbek terminologiyasi sistemasida ham qo‘shma adabiyotshunoslik terminlari salmoqli o‘rin egallaydi. Moziydan o‘zbek tili lug‘at fondida faol qo‘llanib kelayotgan tub (asl) hamda arab va fors-tojik so‘zlaridan yasalgan qo‘shma so‘zlar o‘zbek terminologiyasida muayyan salmoqqa ega. Internet va globallashuv davrida xorijiy tillaming o‘zbek tili so‘z boyligiga sezilarli ta‘siri oqibatida terminlar sistemasi yangi tip va modellardagi qo‘shma terminlar hisobiga yanada kengaydi. Qo‘shma terminlar tarkibining genetik nuqtayi nazardan tavsifi ulaming ikki, ya‘ni muayyan tildagi qatlamga oid so‘z birikmalaridan yasalgan qo‘shma terminlar hamda turli tillarga taalluqli so‘z birikmalaridan yuzaga chiqqan qo‘shma terminlarga guruhlanishidan guvohlik beradi. Tarkib (komponent)lari muayyan (bir) leksik qatlamga tegishli so‘zlardan tashkil topgan qo‘shma terminlar o‘z navbatida ikki guruhga taqsimlanadi: 1) o‘zbek tilida qadimdan qo‘llanishda bo‘lgan asl o‘zbekcha, arabcha va forscha-tojikcha leksemalaming birikishidan voqelangan qo‘shma terminlar; 2) tarkiblari ruscha-baynalmilal termin yoxud termin-elementlardan tashkil topgan, ya‘ni o‘zlashtirilgan qo‘shma terminlar (Madvaliyev 2017.60-66). Qo‘shma terminlar struktur jihatdan tubandagi modellarga ega:

- a) Ot+ot: Ezop tili, she‘r tizimi
- b) Sifat+ot: ichki monolog, qo‘shma vazn, qisqa hiyo

O‘zbek tilidagi qo‘shma adabiyotshunoslik terminlarining ko‘pchiligi rus va ingliz tillaridan kalkalash usuli bilan, arab va fors-tojik tillaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib kelish yo‘li bilan hosil bo‘lgan: adabiy ta‘sir-ruschadan:” литературное влияние”, adabiy maktab-ruschadan “литературная школа”, aksilqahramon –ruschadan “антигерой”, ilmi aruz, ilmi qofiya.

To‘g‘ri ma‘noli turg‘un termin va birikmalarining qisqartma so‘zlarga aylanishiga abbreviatsiya usulida so‘z yasalishi deyiladi. Bu usulda qisqartma otlar yasaladi. Hozirgi o‘zbek tiliga abbreviatsiya usulida so‘z yasalishi rus tilidan

kirgan. Qisqartma adabiyotshunoslik terminlari - barqaror soʻz birikmalari komponentlarining bosh harflarini yoki maʼlum qismlarini olib qoʻshish bilan hosil qilinadi. Qisqartma soʻzlar nutqda ixchamlikka erishish zarurati bilan dastlab yozma nutqda paydo boʻladi va faol qoʻllanishi natijasida keyinchalik ogʻzaki nutqqa ham oʻtadi.

Barcha qisqartma soʻzlar kabi abreviatsiya usulida yasalgan adabiyotshunoslik terminlari ham, asosan, ot turkumiga mansub boʻlib, quyidagi yoʻllar bilan hosil qilinadi:

- 1) soʻz birikmasi komponentlarining birinchi harflarini olib qoʻshish bilan. Biatahlil qilayotgan M.H. Abramsning “A Glossary of Literary Terms” lugʻatida bunday qisqartma terminlar uchramaydi. Ammo Kris Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary terms” lugʻatida *S&F* abbreiaturasini uchramiz; *science fiction*, (*S&F*) *a popular modern branch of prose fiction that explores the probable consequences of some improbable or impossible transformation of the basic conditions of human (or intelligent nonhuman) existence. The term itself was first given general currency by Hugo Gernsback, editor of the American magazine Amazing Stories from 1926 onwards, and it is usually abbreviated to SF (the alternative form 'sci-fi' is frowned upon by devotees)*
- 2) soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarning bosh qismlarini olib qoʻshish bilan: *agitprop* (*agitatsiya+propaganda*), *Eng.Lit.*(*English+Literature*), *proletcult* (*proletar+kultura*). Ayrim manbalarda *agitprop* va *proletcult* abviaturalari semantic soʻz yasalişining teleskopiya yoʻli bilan hosil boʻlgan deb taʼriflanadi. Teleskopiya soʻz yasalişhi ikki mustaqil soʻzlarning maʼlum qismlarining bir-biriga qoʻshilişhi natijasida yangi qoʻshma soʻz hosil qilish usuli hisoblanadi.
- 3) soʻz birikmasi tarkibidagi 1-soʻzning 1-boʻgʻinini, qolgan soʻzlarni qisqartirmay : *ecocentrism*, *ecofeminism*, *anthropocentric*, *folktale*

XULOSA

Termin – u yoki bu soʻz yoki soʻz birikmasining ilm-fan tilida kasb etadigan funksiyasidir. Shuning uchun termini noteringa qarama-qarshi qoʻyish yoʻli bilan ularni taʼriflashga harakat qilish besamar usul hisoblanadi. Soʻz va soʻz birikmasi narsa-hodisaning umumiy va xususiy nomi boʻlsa, termin tushunchaning nomidir. Termin, hech boʻlmaganda, bir soha doirasida faqat bitta maʼnoni anglatishi, aniq, qisqa, tushunarli, tizimli va asoslangan boʻlishi kerak.

Termin yasashda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish eng muqobil va toʻgʻri yoʻl sanaladi. Aks holda, har qanday terminotizim umumadabiy til meʼyorlaridan uzoqlashadi va pirovard natijada nafaqat oddiy oʻquvchiga, shuningdek, mutaxassislariga ham tushunarsiz boʻlib qoladi, tilning tozaligi tamoyiliga jiddiy putur yetkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abrams, M.H. (1999). *A Glossary of Literary terms*. Heinle & Heinle, a division of Thomson Learning, Inc.
2. Absalomova, G. (2013). *Terminologik tadqiqotlarning asosiy yoʻnalishlari*. Samarqand.
3. Akhmanova, O.S. (1969). *Dictionary of linguistic terminology*. Moscow.
4. Baldick, Ch. (2001). *The Concise Oxford Dictionary of Literary terms*. Oxford: Oxford University Press.
5. *Bruno Studies in English*. (2010). 36(1), ISSN 0524-6881.6. Cuddon, J.A. (1999). *Dictionary of Literary terms and literary theory* (4th ed.). Penguin Books.
7. Eliot, T.S. (1921). *Poetry & Prose: The Chapbook*. Poetry Bookshop London.
8. Galperin, I. R. (1971). *Stylistics*. Moscow: Higher school publishing house.
9. Hojiyev, A. (2002). *Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati*. Toshkent.
10. Hotamov, N., & Sarimsoqov, B. (1983). *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha oʻzbekcha lugʻati*. Toshkent: Oʻqituvchi.
11. Ismoilov, Sh. (1999). *Tilshunoslik asoslari*. Toshkent.

12. *Macmillan English Dictionary for advanced learners*. (2011).
13. Mardiyev, T.K. (2015). *Olamning lisoniy tasviri*. Samarqand.
14. McArthur, T. (2005). *The Concise Oxford Companion to the English Language*. Oxford: Oxford University Press.
15. *Merriam Webster Encyclopedia of Literature*. (1995). Merriam Webster & Britannica.
16. Petrosyants, E.G. (2004). *Linguistic terminology: structure, semantics, derivation: on English material*. Pyatigors.
17. Saidova, Muhayyo (2021) "SEMANTIC ANALYSIS OF LITERARY TERMS BY LITERARY TYPES IN "THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERATURE TERMS"," *Philology Matters: Vol. 2021: Iss. 1, Article 11*. DOI: 10.36078/987654486
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2021/iss1/11>
18. Saidova, Mukhayyo Umedilloevna (2020) "LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY Ch. BALDICK," *Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2: Iss. 9, Article 45*. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss9/45>
19. Umedilloevna, S. M., & Shavkatovna, S. M. (2022). Adabiyotshunoslik Terminlari Hosil Bo'lishining Linqvistik Omillari (M.H. Abramsning "A Glossary Of Literary Terms" Lug'ati Asosida). *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 39–42. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/39>
20. Sattorova, M. S. (2021). The Importance of Linguistic and Extralinguistic Features in Poetry Translation. *"ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM*, 178–181. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/612>